



UO'K:812.512.133'06.09-31

Dilnoza TO'RAYEVA,
Guliston davlat universiteti dotsenti
E-mail: turaeva.dilnoza83@mail.ru

GulDU dotsenti, f.f.doktori G.Qo'lyiyeva taqrizi asosida

THE PHENOMENON OF CYCLICITY IN UZBEKISTAN NOVELISM

Annotation

This article examines in detail the genesis of the novel series in Uzbek prose, as well as the emergence of the phenomenon of series in various forms in the history of our literature in various genres. It is studied that series in folk epics is manifested in gradualism and consistency, in the originality of plot construction, in compositional unity and content integrity. Theoretical views on the genesis of series are summarized.

Key words: Novel, series in the novel, literary series, cycle, subject, character, the concept of "travel", gradualism, gradualism.

O'ZBEK ROMANCHILIGIDA TURKUMLILIK HODISASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek nasrida romanlar turkumining genезisi, shuningdek, turkumlilik hodisasining adabiyotimiz tarixida turli janrlarda har xil shakllarda yuzaga kelganligi atroflicha o'rganilgan. Xalq dostonlardagi turkumlilik tadrijiylik va izchillikda, syujet qurilishining o'ziga xosligida, kompozitsion birlik va mazmuniy butunlikda namoyon bo'lganligi tadqiq etilgan. Turkum asarlarning genезisi bilan bog'liq nazariy qarashlar umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Roman, romanchilikda turkumlilik, adabiy turkum, sikl, sujet, personaj, "sayyorlik" tushunchasi, bosqichlilik, tadrijiylik.

ФЕНОМЕН ЦИКЛИЧЕСКОГО ИЗДАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ

Annotatsiya

В статье всесторонне исследуется генезис романного цикла в узбекской прозе, а также возникновение феномена цикла в различных формах и жанрах в истории нашей литературы. Установлено, что серийность народных былин проявляется в постепенности и последовательности, своеобразии сюжетной структуры, композиционном единстве и цельности содержания. Обобщены теоретические взгляды на генезис жанровых произведений.

Ключевые слова: Роман, серия в романоведении, литературная серия, цикл, тема, персонаж, концепция "путешествия", постепенность, градуализм.

Kirish. Asrlar davomida shakllangan adabiy ijod va ijodiy jarayonning turfa xil xususiyatlari haqidagi ilmiy qarashlarda bu turkum roman tushunchasining o'ziga xos murakkabligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, adabiyotshunoslikda adabiy turkum tushunchasi ham o'ziga xos spesifik xususiyatiga ega. "Adabiy turkum – bir muallif yoki mualliflar tomonidan yaratilgan umumiy yoki bog'liq mavzudagi adabiy asarlar turkumi. Bir qator asarlarni birlashtirgan umumiylik, harakat, mavzudan tashqari, janr, harakat joyi va vaqti, personajlari, bayon qilish shakli va uslubi ham bunga kiradi" [7]. Demak, adabiy turkum mushtarak g'oyaviy niyat, umumiy mavzu, qahramon va muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lgan badiiy asarlar majmuidir.

O'zbek adabiyotshunosligidagi turkum tushunchasi jahon adabiyotshunosligida sikl atamasi bilan aynidir. "Sikl (grekchada Κύκλος – aylana) adabiyotga nisbatan umumiy sujet va personajlar tarkibi bilan bog'langan asarlar turkumini anglatadi" [8]. Adabiy turkum keng tarqalgan tushuncha bo'lib, odatda badiiy adabiyotda mazmun jihatdan asarlarni badiiy birlashtirishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Turkum asarlar adabiyotning barcha janrlarida uchraydi. Turkumni tashkil etuvchi asarlarning aksariyatini alohida qismlariga ajratib bo'lmaydi. Bu holat turkum asarlarga birlik mezonini qo'llashning maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi. Undagi mavzuning umumiyligi, muayyan kompozitsion yaxlitlikka egaligi, qismlar orasidagi aloqadorlik yuqoridagi fikrni asoslaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Epik turkumlilikni rus va jahon adabiyotidagi turli aspektda tadqiq etish XX asrning boshlaridayoq boshlangan. Bunda turkumlilik hodisasi adabiyotshunoslar tomonidan alohida badiiy hodisa sifatida qabul qilingan va nazariy jihatdan ma'lum darajada o'rganilgan. Jumladan, Lazukina Sofya Nikolayevna "Epik sikl poetikasi" (V.G.Rasputin asarlari asosida) nomli tadqiqotida turkumlilik hodisasining asosiy jihatlaridan biri, mualliflik darajasi ekanligini ta'kidlab, ba'zi turkum asarlarning muallifi bitta bo'lsa, ba'zilarida ularning muallifi bir yozuvchiga tegishli bo'lmasligini qadimgi va o'rta asrlarga tegishli eposlarning ilk ko'rinishlariga tayanib ko'rsatadi. Elvira Viktorovna Zaytsevaning "Epik nasrdagi adabiy siklizatsiya" nomli tadqiqoti esa turkum romanga xos qismlar o'rtasidagi bog'liqlik muammosiga bag'ishlangan. Ilin Aleksandr Anatolyevichning "Zamonaviy rus nasrida epik sikl" (V.Belov, V.Astafiyev, V.Rasputin, Y.Bondarevlar asarlari asosida) nomli tadqiqotida ham adabiy siklizatsiya muammolari, aynan, epik asarlar turkumiga xos jihatlar haqida so'z yuritiladi. E'tiborlisi, bunda ko'pgina zamonaviy nasriy asarlarining turkumlilik tuzilishi haqida boshqa ilmiy masalalar bahopnasidagina fikr yuritilayotgani, binobarin, epik asarlardagi turkumlilik hodisasini zamonaviy adabiyot materiali asosida o'rganish dolzarbligi aytiladi.

Nesterova Svetlana Viktorovna tadqiqotida esa asosiy e'tiborni turkumni hosil qiluvchi jihatlar: umumiy mavzu, kompozitsion birlik, sujet va boshqalarga qaratadi. U siklda

mazmuniy birlik yozuvchi badiiy g'oyasini yuzaga chiqarishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. I.F.Zamanovning N.V.Gogol nasriy asarlari asosida qilgan tadqiqotida turkum asarlarda makon va zamon masalasi, kompozitsion yaxlitlik hamda "siklik gulchambar"ning falsafiy va estetik o'ziga xosligi ochib beriladi. Unda asarning badiiy mantiqida o'zini namoyon qiladigan janr ichidagi siklik shakllanishlar (mikrosikllar, siklik elementlar va boshqalar) o'rganilgan.

Romanlar turkumi haqida nazariy manbalarda umumiy qoidalar berilgani bilan o'zbek adabiyotshunosligida ushbu holat alohida tadqiq etilmagan. O'zbek adabiyotida alohida hodisa deya baholangan romanlar turkumi haqida ham fundamental tadqiqotlar mavjud emas. Turkumlilik hodisasiga boshqa janrlar tadqiqi jarayonida u yoki bu jihatiga ko'ra ayrim munosabatlar bildirib o'tilgan.

Xususan, o'zbek xalq turkum eposlarida spetsifik xususiyatlariga ko'ra, tadrijiylik va izchillik kabi jihatlar mavjud ekanligi S.Mirzayevaning monografik tadqiqotida keltirib o'tiladi. Turkumlilik xalq og'zaki ijodidanoq boshlanganligi haqidagi fikrlar T.Mirzayev tadqiqotlarida mavjud. Unda asosiy qahramon atrofida umumiylik, izchillik va turkumlilik epik qonuniyatlar asosida yuzaga keltirilganligi ta'kidlanadi. Turkumlilikning o'zbek adabiyotida shakllanish jarayoni haqida adabiyotshunoslar ushbu shaklning ildizlari qadimgi davr adabiyotidan kelib chiqqanligini ta'kidlash orqali munosabat bildiradi. Chunki qadimgi toshbitig'larda spetsifik xususiyatlariga ko'ra tadrijiylik va izchillik mavjud bo'lib, bunday mazmun matnlar qurilishida va kechinmalar tavsifida ham ko'zga tashlanadi.

"Devoni lug'otit turk" asari tarkibidagi to'rtliklar bir mavzu doirasida bitilgani, undagi asosiy jihat inson va tabiatning aloqadorligi ekani, ularning mazmuni uchun umumiy jihat asos vazifasini o'tashi haqidagi ma'lumotlar turkumlilik juda qadimda shakllangan ekanligini dalolatlaydi. Filologiya fanlari doktori Obidaxon Fayzullayeva o'zbek adabiyotida she'riy turkumlarning badiiy-estetik xususiyatlarini uning janr tarixi, genezisi, tendensiyalari, tadrijiy taraqqiyoti, estetik tabiatiga ko'ra atroflicha tadqiq etgan. Shuningdek, turkum she'rlarning tipologik xususiyatlari adiblarning ijodiy individualligi, janr formalarining o'ziga xosligi bilan birgalikda o'rganilgan. O'zbek nasrida trilogiya va tetralogiylarning badiiy-estetik tabiati, sujet va kompozitsion qurilishi, qahramon konsepsiyasi masalalari, xususan, badiiy o'ziga xosligi va taraqqiyot tendensiyalari hamda roman-tetralogiyaning yuzaga kelishi va yetakchi spetsifik belgilarini adabiyotshunos Gulchehra Qo'zliyeva tadqiq etgan. Tadqiqotchi O.Qurbonova esa Ibrohim G'ofurovning turkum maqolalari misolida adabiyotshunoslikda turkumlilik masalasiga e'tibor qaratgan. Bu masalaga turkumlilikning bosh belgisi – bir masnada uyushtirilgan asarlar guruhni hosil qiluvchi yaxlit bir hodisa sifatidagi qarash asosida yondoshilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyyosiy, semantik-struktural, sotsiologik, psixanalitik, struktural, qiyyosiy, biografik, psixanalitik, germeneytik, qiyyosiy-tipologik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Turkumlilik hodisasi alohida asarlarning turkumga qo'shilishi, nafaqat, ularning yig'indisini, balki, mazmun jihatidan ham yakka kombinatsiyani, yangi badiiy yaxlitlikni yuzaga keltiradi.

"Turkum – bu muallif tomonidan ma'lum tartibda to'plangan va tartibga solingan asarlar to'plami. Matnlarning o'ziga xos jihatlar badiiy yaxlitlikni birlashtirishga imkon beradigan xususiyatlarga ega deyish mumkin" [6]. Turkumlilik hodisasi haqidagi mazkur qarash birdan ortiq umumiy mavzu

doirasidagi muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega asarlar haqidagi umumlashma fikrdir.

Turkumlilik o'zbek adabiyoti tarixida qadimdan shakllangan adabiy hodisalardandir. Turkum asarlarning genezisi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratsak, bu hodisa xalq eposlariga borib ta'alishi ma'lum bo'ladi. Xalq dostonlaridagi turkumlilik ham tadrijiylik va izchillikda, sujet qurilishining o'ziga xosligida, kompozitsion birlik va mazmuniy butunlikda namoyon bo'ladi. Turkumlilik hodisasi adabiyotimiz tarixida turli janrlarda va turli shakllarda yuzaga kelgan. Aynan epik tur janrlarining yuzaga kelishi turkum romanlar yaratilishiga asos bo'lgan. Bu hodisa ma'lum bir ma'noda roman janrining takomil bosqichini namoyon etadi. Shu tariqa milliy o'zbek adabiyotida turkum romanlar yuzaga kelgan.

O'zbek adabiyotshunosligida roman janri shakllari sifatida qaraladigan asarlarni dilogiya (ikkita romandan iborat), trilogiya (uchta romandan iborat), tetralogiya (to'rtta romandan iborat), pentalogiya (beshta romandan iborat), undan ortig'ini esa romanlar turkumi deb ataladi. Aslini olganda, barcha shakllarga ularning sonidan kelib chiqib bir nom berilgani ma'qul. Shu bilan birga, ularning barchasini umumlashtirib bir nom ostida turkum romanlar deyilsa ham o'rinli bo'ladi. Chunki, ikkita romandan iborat dilogiya ham, yettita yoki sakkiztalik romanlar turkumida ham turkumlilikka xos badiiy yaxlitlik va birlashtirishga imkon beradigan xususiyatlar mavjud.

Turkum romanlar son jihatidan qancha ekanidan qat'i nazar sujet, kompozitsion qurilishiga ko'ra, nisbiy mustaqillikka ega asarlarning sujet chiziqlarining davomiyligi, muallif niyatining yagonaligi, yaxlit konsepsiyaning mavjudligi tufayli butunlikka birikuvidan tashkil topadi. Demak, turkum romanlar alohida qismlardan tashkil topgan yirik hajmga teng yaxlitlikdir. "Turkum asarlar badiiyati g'oyaviy jihatdan umumiylik, mavzuning mushtarakligi, obrazlar tizimidagi "sayyorlik" tushunchasining mavjudligi bilan ajralib turadi. ("Sayyorlik" tushunchasi deganda romanlararo ko'chib yuruvchi yoki kamida ikkita kitobda ishtirok etgan qahramonlarga nisbatan qo'llanilgan shartli tushuncha nazarda tutilmoqda) [5]. Mazkur ilmiy qarash turkum romanlarga tegishli bo'lib, turkumlilikning mohiyati va o'ziga xos tizimlashtirish yo'sini, ularning umumiy badiiy mohiyatini aniqlash va shu bilan birga janr tabiatini tushunish imkonini berishni anglatadi. Ularning aksariyati epopeya talablariga ham mos keladi.

Turkum romanlarning o'ziga xos xususiyatlari mazkur janrning qator imkoniyatlarini namoyon qiladi. Rus adabiyotshunosi N.A.Vorobyeva turkum romanlarning janr xususiyatlari haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Roman sikli – mazkur janrning XX asrning birinchi yarmidagi o'ziga xos shakli bo'lib, romaning ichki avtonom qismlarining konseptual birligi bilan tavsiflanadi. Ko'p epizodlardan iborat yorqin matnlar shaklining har biri o'z tuzilishiga ega bo'lsa-da, yaxlit birlikni tashkil qiladi" [3]. Ko'rinadiki, turkumga kirgan romanlar soni nechta bo'lishidan qat'i nazar, ularda sujetning uzvuyligi, umumiy g'oyaning butunligi kuzatiladi. Demak, "Adabiyotdagi turkumlilik – muallifning o'zi tomonidan tuzilgan va birlashtirilgan badiiy bir butunlikni ifodalovchi asarlar guruhidir. Faqat shunday hodisalar siklik shaklda paydo bo'lishi mumkin. Ular faqat oldingi yoki keyingilari tufayli mazmunli bo'ladi" [7]. Turkum romanlar haqidagi mazkur ilmiy qarshlarda ham nafaqat shakl bilan bog'liq umumlashma, balki, mazmuniy birlik ham yetakchilik qilishi ta'kidlanmoqda. Umuman olganda, turkum romanlarning birinchi asari mazmunini keyingilari bevosita to'ldiradi. Mazmuniy maydonning bunday birligi turkum romanning ham shakli, ham mazmunan yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Epik sikl – bir nechta nashrlardan iborat matnning barqarorligi. Siklning birlamchi xususiyati tarkibiy qismlarning

yaxlitligi asosida yaratiladi. Unda qismning butunga bo'ysunishi emas, balki bo'laklarning bog'lanishi birinchi o'ringa chiqadi. Unda muvofiqlik muhim ahamiyatga ega bo'ladi" [7]. Bu nazariy qarashda ham turkum romanlarning kompozitsion qurilishidagi o'ziga xoslik, sujet yo'nalishlari jihatidan nisbatan mustaqil asarlarning badiiy talqindagi davomiyligi ko'zga tashlanadi.

Turli ilmiy manbalar bilan tanishish natijasida nasriy asarlardagi turkumlilik hodisasi quyidagi spesifik xususiyatlarga ega bo'lishi aniqlandi:

- bir-biri bilan ichki semantik aloqalar orqali bog'langan bir necha asarning mavjudligi;
- matnlar o'rtasida assotsiativ aloqa mavjud bo'lgan kompozitsiyasi – tuzilmaning yaxlitligi;
- mazmuniy birlikning yetakchilik qilishi;
- turkumning tartibiga qarab makon va zamonning uyg'unlashuvi;
- muallif ijodiy niyatining badiiy qamrov orqali yuzaga chiqarilishi.

Demak, turkum romanlar kompozitsion qurilishi, sujet yo'nalishi jihatidan nisbatan mustaqil asarlar birligi bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari umumiy qahramonlarining mavjudligi, sujet yo'nalishlarining davomiyligi, muallif niyatining yagonaligi va shulardan kelib chiquvchi yaxlit konsepsiya tufayli butunlikka birlashuvdan tashkil topganligidir. Shuningdek, turkum romanlarning g'oyaviy jihatidagi umumiylik kasb etishi, mavzu, makon va zamondagi mustaraklik, obrazlar tizimidagi "sayyor"lik tushunchalari kabi jihatlar uning spesifik xususiyatlarini tashkil qiladi.

Adabiyotdagi turkumlilik hodisasi roman janri rivojining sifat jihatidan yangi bosqichi bo'lib, u o'zida ijtimoiy, tarixiy, madaniy, adabiy jarayon tadrijini to'liq aks ettiradi. Rus adabiyotshunosi Merkushev Stanislav Fedorovichning fikrlari ham nasrdagi turkumlilik haqidagi bizning qarashlarimizga mos keladi: "Muallifning roman siklini bo'lak sifatida emas, balki yagona matn sifatida qabul qilishi turkumlilikka xos jihatlardan biridir. Nasrdagi turkumlilik adabiyotshunoslikda alohida badiiy imkoniyat sifatida qabul qilinadi: har bir asar, siklga kiritilgan mustaqil badiiy birlik sifatida mavjud umumlashmadi" [6]. Demak, turkum romanlar umumiy mavzu doirasida yagona matn sifatida yuzaga chiqar ekan, u yozuvchi estetik idealiga ko'ra, alohida badiiy imkoniyat sifatida mavjud butunlikni yuzaga keltiradi.

Tadqiqotchilar siklni tashkil etgan elementlar to'liq mustaqil emasligini ta'kidlashsa-da, bu hodisa tarixan rivojlangan bo'lib, siklga kiritilgan matnlarning aksariyati yagona tartibda nashr etilib, o'quvchi tomonidan alohida qabul qilinishi ham mumkin. Masalan, "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi har bir dostonni alohida olinsa ham o'zining mazmuniy birligini saqlaydi.

Ba'zi olimlar turkumlilik hodisasini maxsus janrning (V.A.Sapogov) paydo bo'lishiga olib keldi, deb hisoblasa, boshqalari (M.N.Darvin) siklni janr emas, balki, superjanr birligi deb hisoblash kerak, deb aytadi. Bunday mushohadalar turkumlilikning tadqiqi natijasida yuzaga kelgan qarashlar deyish mumkin. Bu qarashlar umumiy turkumlilik hodisasiga nisbatan aytilgan bo'lsa-da, turkum romanlar alohida olib qaralganda, masalan, trilogiya, tetralogiya janr emas, roman shakli deb qaraladi.

ADABIYOTLAR

1. Адабиёт назарияси. Жамоа. II жилдлик. II жилд.— Тошкент: Фан, 1979. — Б.109.
2. Лазукина С. Н. Поэтика эпического цикла в творчестве В.Г. Распутина. Автореферат дис. ... кандидата филологических наук. 2019.
3. Воробьева Н.А., Роман-цикл как специфический жанр литературы первой половины XX века. Мир наук культуры образования. УРГУ, г. Челябинск. №4 (11), 2008.
4. Yo'ldoshev Q. Ko'rkam so'z yog'dusi. — Toshkent: Ijod nashr, 2025.

Turkumlilik hodisasida alohida asarlarning turkumga qo'shilishi, nafaqat, ularning miqdoriy yig'indisini, balki, matnlararo kombinatsiyani: yangi badiiy yaxlitlikni yuzaga keltiradi. Romanlar turkumining kompozitsion ko'lamini, avvalambor, qahramonlar hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy hayotni tasvirlash bilan bog'liq oila, do'stlik, sevgi singari muammolar tashkil qiladi. Bularning barchasi turkumni shakllantiruvchi muhit bilan aloqasiz bo'lmaydi. Bundan tashqari, qahramonlar ruhiyatiga aloqador talqinlar ham, albatta, asarning ham shakl, ham mazmun bilan bog'liq siklik chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Bir so'z bilan aytganda, epik sikllarning chegaralari ularda ko'rsatilgan fazoviy kenglikning miqdoriy xilma-xilligi bilan emas, balki, birinchi navbatda ularning sifat munosabatlari bilan belgilanadi. Turkum romanlardagi qismlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni quyidagi kombinatsiyalar yuzaga chiqaradi:

- sujetdagi ketma-ket voqealararo dominant matn mavjudligi;
- matnda ustunlik qiladigan voqeaning o'sishi: bosqichlilik va tadrijlilik.

"Adabiy siklning badiiy birligi mustaqil asarning yaxlitligi bilan bir xil emas. Ushbu xususiyat siklga birlik mezonini qo'llashning maqsadga muvofiqligi haqidagi tezisni olib tashlamaydi, chunki unda alohida asarda bo'lgani kabi, birlik mexanik tarzda shakllanmaydi, balki qismlar orasidagi maxsus aloqalar asosida yaratiladi" [3]. Turkum asarlarning yana asosiy tamoyillaridan biri xronologiya bilan bog'liqdir. Har bir asarda keltirilgan tasvirlar o'rtasida tabiiy ravishda rivojlanayotgan ketma-ketlik mavjud bo'ladi. Bu qahramonlar hayoti bilan bog'liq voqealar va ruhiy holatlar ketma-ketligi obrazlarning tabiiy o'sishini tasvirlashning yagona yetakchi vositasi sanaladi.

Romanlar turkumi makon va zamonning birligi, uning badiiy yaxlitligi, to'liqlikka ega bo'lgan ichki tendensiyaga asoslanadi. Asar qahramonlari boshidan kechiradigan tashqi va ichki evolyutsiya har doim ma'lum bir vaqtni talab qiladi. Ular har doim kulminatsion nuqtalardan o'tadi, lekin shu bilan birga, o'z muddati bilan chegaralanadi va yakunga intiladi. Buning ko'rsatkichi natija – badiiy yechim. Turkumlarning oraliq asarlarida qo'yilgan muammoning turli jihatlari yagona masalaga mantiqiy bog'liqlikda biri-ikkinchisiga aloqador bo'ladi. Ta'kidlanganidek, turkumning barcha qismlarida tanlangan mavzu mohiyati ma'lum ma'noda yoritiladi va yagona nuqtada birlashadi. Tabiiyki, bunday mazmundagi uzviylik hodisani turkum deb atash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, turkumlilik o'zbek adabiyoti tarixida qadimdan shakllangan adabiy hodisadir. Adabiy turkum – bir yoki bir-biriga yaqin mavzular doirasidagi bir muallif yoki bir necha mualliflar tomonidan yaratilgan adabiy asarlar yig'indisi. Bir necha asarlarni birlashtirib turgan umumiylik, ham janrga, ham voqelik sodir bo'layotgan makon va zamonga, ham personajlarga, ham shakl va mazmunga aloqador bo'lishi mumkin. Demak, turkum romanlar bir qancha asarlarning uzviy birligi bo'lib, o'ziga xos jihatlari undagi umumiy qahramonlarining mavjudligi, sujet yo'nalishlarining davomiyligi, muallif niyatining yagonaligi va shulardan kelib chiquvchi yaxlit konsepsiya tufayli butunlikka birlashuvdan tashkil topadi.

-
5. Қўйлиева Г. Ўзбек насрида трилогия. Филол. фанлари бўйича фалсафа док ... дисс... – С.: 2018. Qo‘yliyeva G. O‘zbek nasrida roman-tetralogiya. (Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasi misolida). Filol. fanlari dok ... diss... – T.: 2025.
 6. Fayzullayeva Obida Xolbekovna. O‘zbek adabiyotida she‘riy turkumlilik masalasi. (tarixi, estetik tabiati, yetakchi tendensiyalari). Filol. fanl. dok ... diss... – Toshkent. 2023
 7. https://gufo.me/dict/literary_terms/pg3. Литературная энциклопедия. 2005.
 8. Краткая литературная энциклопедия / Под ред. А.А. Суркова. – М.: Сов. энциклопедия. 1962-1978.